



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

NAVOIY DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

**“O'RTA OSIYODAN ANADO'LGACHA:
TURKIY XALQLAR TILI, TARIXI, MADANIYATI
VA ETNOGRAFIYASI”**

mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

MATERIALLARI TO'PLAMI



Navoiy-2023

Annotatsiya : Maqolada o'zbek xalqining jonkuyar fidoyisi, adabiyotimiz posboni Abdulla Qahhor shaxsiyati va ijodinining Ibrohim Haqqul tadqiqotlaridagi o'ziga xos talqini va tadqiqi haqida so'z boradi.

В статье говорится об уникальной интерпретации и исследовании личности и творчества Абдуллы Каххора, страстного подвижника узбекского народа, хранителя нашей литературы, в исследованиях Ибрагима Хаққуля

The article talks about the unique interpretation and research of the personality and creativity of Abdulla Qahhor, a passionate devotee of the Uzbek people, the keeper of our literature, in Ibrahim Haqqul's research.

Abdulla Qahhor o'zbek adabiyotining yetuk namoyandasi, o'ziga xos va tengsiz asarlari bilan o'zbek adabiyotini yuksaltirish va jahonga tanitish borasida alohida xizmat ko'rsatgan nodir iste'dod sohibidir. Shuning uchun bo'lsa kerak, adabiyotshunoslarimiz adib asarlariga qayta-qayta murojaat qilinganda ham, har gal yangi ifoda, poetik shakl va mazmun mutanosibligining betakror talqininga duch kelishlarini alohida ta'kidlab o'tishadi.

Ibrohim Haqqulning Abdulla Qahhor haqidagi qarashlari esse janrida aks ettirilgan. Adabiyotshunos olim D. Quronov esse janrini "hozirgi adabiyotda ommalashib borayotgan, bir tomondan badiiy-publisistik xarakterda ekanligi, ikkinchi tomondan, hajm e'tibori bilan turlicha ko'rinishlarga egaligi" bilan alohida xarakterlanishini aytadi.¹⁴¹ Ibrohim Haqqulning "Abdulla Qahhorning jasorati" essesi bilan tanishar ekanmiz, olimga bu janrning mavzu rang-barangligi, muallifning subyektiv fikrlarining o'ta erkin tarzidagi bayoni, muallif fikrining obrazli talqini va jonli tilga yaqin bo'lishi qo'l kelganligining guvohi bo'lamiz.

Ibrohim Haqqul tadqiqotlarini kuzatish asnosida adabiyotshunosning qaysi adabiy davr, qaysi adabiy muhitga mansub ijodkor haqida fikr yuritmasin, ularning el-yurt manfaati yo'lidagi xizmatlarini adabiyot oldidagi xizmatidan baland qo'yishining guvohi bo'ldik. Esse avvalida Qahhorning mashhur "Adabiyot atomdam kuchli. Uning kuchini o'tin yoritishga sarflamaslik kerak!" -, degan mashhur haqiqatining zahirida aslida, yurt va millat taqdiri mujassamligini o'ziga xos talqinini beradi. "Adabiyot taqdiri yurt va

¹⁴¹ D. Quronov. Adabiyot nazariyasi asoslari.- Toshkent:Navoiy universiteti,2018.74-bet.

millat taqdiri bilan uzviy bog'liq. Millat ruhi butun murakkabligi va ziddiyatlari bilan avvalo adabiyotda aks etmog'i kerak. Millatning qalb dardlariga ham dastlab adabiyot malham topadi.Chunki xalqning yashash zavqi susaysa - g'ayrati susayadi.Ma'naviy-ruhiy g'ayrat pasaysa- fikr va tashabbus to'xtaydi."¹⁴²

Ibrohim Haqqul Abdulla Qahhorning yozuvchilik mahoratini esseda janrlar doirasida yoritishga harakat qiladi. Yozuvchining hikoyachilikdagi mahoratini O.Sharafiddinov, M.Qo'shjonov, U. Normatovlardan farqli ravishda timsollarning betakrorligini, takrorlanmasligini har qanday soxtalikdan, sun'iylikdan holiligida deb biladi. Adib hikoyalaridagi "har bir detal, har bir badiiy to'qima hayot haqiqatiga o'ta mos va ular inson taqdirini haqqoniy shaklda yoritishga xizmat ettirilgan"¹⁴³ligini adibning hikoyalari misolida tahlil qiladi.

Abdulla Qahhorning esseda tahlilga tortilgan "O'g'ri", "Bemor", "Boshsiz odam", "Anor" hikoyalarining haqqulono tahlili sizni beixtiyor shu hikoyalarning qayta mutolaasiga undaydi. Chunki bu hikoyalarda o'tmishning zamon bilan bog'liq nozik rishtalari davr haqiqatlarini baralla aytish mumkin bo'lmagan davr kishilarning fojialarini yoritishga qaratilganligiga borib bog'langan. "To'liq ma'noda Faxriddinga monand, uningdek laqma, irodasiz, mustaqil fikrdan mahrum go'l kimsani, ehtimol,hayotda uchratish qiyindir. Ammo atrofga sinchkovlik bilan ko'z tashlab, mushohada etilsa-chi? Hayronlar qolasiz...Beixtiyor, "boshsiz odam" buncha ko'p-a, deysiz?"¹⁴⁴

Esseda Abdulla Qahhorning ijodi va shaxsiyati 3 yo'nalishda tahlil etilib, yozuvchi haqida aytilgan fikrlar ilmiy mulohazalar bilan boyitilgan samimiy, balanparvoz va sun'iy ta'riflardan holi tarzda baholangan.

Abdulla Qahhorning xalq va millat manfaati yo'lidagi sa'y harakatlari;

XX asr adabiyotida roman, qissa, hikoya janri takomili yo'lidagi xizmatlari;

XX asr adabiy tanqidchiligi rivojidadagi o'rni;

Shaxsiyat va ijoddagi uyg'unlik masalalari misolida Ibrohim Haqqulning mazkur tadqiqoti qahhorshunoslikda yangicha qarashlarning shakllanishida alohida ekanligini isbotlaydi.

86	Ibragimov A. Yasama otlar – o'quvchilar so'z boyligini oshiruvchi vosita	22
87	Do'stova Surayyo Savronovna Munfasil harflar mavzusini zamonaviy pedagogik texnologiyalar bilan o'qitish	229
88	Pardayeva Madixabonu Nakimovna Abdulla Qodiriy hajviy asarlarida mustaqil so'z turkumlarining qay darajada qo'llanilishi	233
89	Davlatova Aziza Akmalovna Bolalar nutqida qo'llanilgan metonimiyalarning lingvokulturologik tadqiqi	236
90	Islamova Dinara Azamatovna Ko'chim turlari va ularning transpozitsiyaga munosabati	237
91	Sadinova Javohir Usmanovna Abdulla Qahhorning "Dahshat" hikoyasida sifat so'z turkumining qo'llanishi	239

UCHINCHI SHO'BA
TURKIY ADABIYOT: TARAQQIYOT BOSQICHLARI, MOHIYATI, POETIKASI
ЭТНОГРАФИК ФОЛЬКЛОРИЗМЛАР

92	Абдухамид ХОЛМУРОДОВ Ўзбек ва умумтурк адабиётининг ҳозирги тараққиёт тамоинллари	241
93	Баҳриддин Садриддинов Аҳмад Юғнакийнинг "ҳибат-ул ҳақойиқ" асарыда илмга дъват	243
94	Ражабова М. Б. Туркий назмда этнографик фольклоризмлар	247
95	Сўйунов Н.М. Тасвирий сан'ат асарларининг тил ва адабиёт о'қитишдаги о'рни ва аҳамияти	249
96	Ахмедова З.А. Табу адабий элемент сифатида	252
97	Ғайзиёва Дилфуза "Алпомиш" дostonида айрим епоним ва епик образларнинг қадимги мифологик тасаввурлар билан алоқадорлиги хусусида	254
98	Қодирова Ҳамидaxon Абдулла Қahҳор шахсияти ва ижоди Иброҳим Ҳаққул тадқиқотлари	256
99	Мамадалиёва Ғазилат Ҳоқубжоновна Ҳамза лирик меросида шаклий-услубий изланишлар	257
100	Ҳудайқулова Латифа Авазовна "Ҳил бoши" маросими ҳақида ба'зи мулоҳазалар	259
101	Сўйунов Ҳусниддин О'қувчиларнинг имловий саводхонлигини ошириш yo'llari	263
102	Турсунова Насиба О'рта Осиё халқларининг етномаданияти ва ирим-сиримлар хусусида	266
103	Ҳудойорова Мунира Бaxронovна Лutfiy қit'alari poetikasi	268
104	Sharipova Nigora "Ҳайрат ул- аброр" структурасида "Ҳайрат"ларнинг о'рни	270
105	Imamova G.T. Ҳамид Олимжон асарлари poetik leksikasi	273
106	Ubaydullayev Normuhammad Ijodkor shaxsi haqida yozilgan asarlarning genetik ildizlari va o'ziga xos belgilari	275